

O‘ZBEKISTON VA JAHON SAVDO TASHKILOTI: IQTISODIYOT UCHUN YANGI IMKONIYATLAR SARI YO‘L

Ozodov Feruz

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish jarayoni va ushbu a‘zolikning mamlakat iqtisodiyotiga kutilayotgan ta‘siri ko‘rib chiqilgan. JSTga qo‘shilish O‘zbekiston uchun tashqi savdoni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Maqolada Prezident maxsus vakili, xalqaro tashkilotlar vakillari va mutasaddi rahbarlarning bayonotlari asosida JST a‘zolidan iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, JSTga a‘zo bo‘lish yo‘lida amalga oshirilayotgan muzokaralar, yuridik moslashtirish ishlari hamda xalqaro texnik yordamning o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning global savdo tizimiga integratsiyalashuvi orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh sari dadil qadamlar tashlayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jahon savdo tashkiloti, O‘zbekiston iqtisodiyoti, tashqi savdo, investitsiya, iqtisodiy o‘sinh, JSTga a‘zo bo‘lish, xalqaro hamkorlik, proteksionizm, islohotlar.

KIRISH: Bugungi globallashtirish sharoitida xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashish har bir rivojlanayotgan davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Jahon savdo tashkiloti (JST) — xalqaro savdo munosabatlarini tartibga soluvchi eng yirik tashkilot bo‘lib, uning asosiy maqsadi a‘zo davlatlar o‘rtasida erkin, adolatli va barqaror savdo tizimini shakllantirishdan iborat. JST 1995-yilda tashkil etilgan bo‘lib, hozirda 160 dan ortiq davlatni birlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi ham bu yo‘nalishda muhim strategik qadamlarni amalga oshirib, JSTga a‘zo bo‘lish jarayonini faol davom ettirmoqda. Mamlakatning JSTga qo‘shilish bo‘yicha olib borayotgan siyosati nafaqat tashqi savdoni erkinlashtirish, balki ichki iqtisodiy muhitni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, raqobatbardosh iqtisodiyot qurish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yo‘nalishni keng ko‘lamli islohotlar tarkibida strategik ustuvorlik sifatida belgilagan. JST bo‘yicha O‘zbekistonning maxsus vakili Azizbek Urinovning ta‘kidlashicha, Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonning JSTga to‘liq a‘zo bo‘lishi 5–7 yil ichida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17 foizgacha o‘sinhiga xizmat qilishi mumkin.

Shunga qaramay, JSTga a‘zo bo‘lish jarayoni bir qator jiddiy majburiyat va muammolarni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, bozorga kirish shartlarini

muvoqilashtirish, bojxona tariflarini qayta ko'rib chiqish, milliy qonunchilikni JST qoidalari bilan moslashtirish va ayrim sohalarda subsidiyalarni kamaytirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Bu esa ayrim tarmoqlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bosim kuchayishiga, qisqa muddatli iqtisodiy muvozanat buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqola O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiyotga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirini, mavjud imkoniyatlar bilan birga xavf-xatarlarni hamda xalqaro hamkorlik va texnik yordamning o'rnini tahlil qilishga qaratilgan.

Metodologiya: Mazkur maqola O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va ularning iqtisodiyotga potensial ta'sirini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli yondashuv asosida tahliliy usul qo'llanildi, bunda mavjud rasmiy bayonotlar, xalqaro tashkilotlarning prognozlari, O'zbekiston hukumati va JSTga oid hujjatlar, hamda ochiq manbalardagi (matbuot nashrlari, intervyular, ekspert fikrlari) axborotlar asos qilib olindi. Tadqiqot manbalari sifatida 2023–2024 yillarda e'lon qilingan Jahon banki, JST va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy ma'lumotlari, shuningdek, OAV orqali tarqatilgan intervyu va tahlillar (jumladan, Azizbek Urunov va Mubin Mirzayevning chiqishlari)dan foydalanildi. Jumladan, Jahon bankining O'zbekiston JSTga a'zo bo'lishi natijasida 5–7 yil ichida iqtisodiyotning 17%ga o'sishi haqidagi prognozi asosiy hisob-kitob nuqtasi sifatida baholandi. Tahlil jarayonida sifatli ma'lumotlarning kontekstual tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, JSTga a'zo bo'lgan boshqa rivojlanayotgan davlatlarning tajribasi bilan qisqacha taqqoslash usuli qo'llandi. Bu orqali O'zbekiston oldida turgan imkoniyat va xavf-xatarlar aniqlanishiga harakat qilindi. Tadqiqot cheklovlari sifatida statistik ma'lumotlarning to'liq emasligi, JSTga a'zolik natijalarining to'liq namoyon bo'lishi uchun vaqt talab etilishi va iqtisodiy prognozlarning o'zgaruvchanligi e'tiborga olindi.

Tahlil va natijalar: O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish yo'lidagi harakatlari mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Azizbek Urunov ta'kidlaganidek, Jahon banki prognozlariga ko'ra, JSTga a'zolik O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 5–7 yil davomida 17 foizga o'sishiga zamin yaratadi. Bu ko'rsatkich xalqaro tajriba bilan solishtirilganda ham yuqori darajadagi ijobiy prognoz sifatida e'tirof etiladi. Masalan, JSTga so'nggi yillarda a'zo bo'lgan Gruziya, Vyetnam va Laos kabi davlatlar tashqi savdo va investitsiya hajmida sezilarli o'sishga erishgan.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatini liberallashtirish, bojxona tartibotlarini soddalashtirish va xorijiy investorlar uchun kafolatlangan shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlar JSTning asosiy tamoyillari – erkin savdo, teng sharoitlar va ochiq iqtisodiyotga uyg'un tarzda olib borilmoqda.

Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, JST talablariga to'liq javob berish uchun mavjud biznes muhiti, ayniqsa mahalliy tadbirkorlik sektorida hali muayyan kamchiliklar mavjud. Mahalliy tadbirkorlar uchun qonunchilikning tez-tez o'zgarishi, normativ-huquqiy hujjatlarning murakkabligi, sud-huquq tizimining sust ishlashi, litsenziya va ruxsatnoma jarayonlaridagi byurokratik to'siqlar JST standartlariga to'liq mos kelmaydi. Bundan tashqari, raqobatbardosh bozor muhitining yetarlicha shakllanmaganligi, ayrim sohalarda davlat korxonalarining ustun mavqei va subsidiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun JSTga a'zolikdan keyingi davrda yangi bosimlar keltirib chiqarishi mumkin.

JSTga a'zo bo'lishdan keyingi davrda bozorga xorijiy mahsulotlarning erkin kirib kelishi natijasida mahalliy kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari raqobatga bardosh berishda muammolarga duch kelishi mumkin. Ayniqsa, texnologik jihatdan zaif, moliyaviy imkoniyatlari cheklangan korxonalar o'z faoliyatini JST talablari asosida modernizatsiya qilishi uchun texnik, moliyaviy va institutsional yordamga muhtoj bo'ladi.

Shunday ekan, JSTga a'zo bo'lishdan ko'zlangan foydani to'liq amalga oshirish uchun nafaqat tashqi savdo siyosatini moslashtirish, balki ichki biznes muhitini – ayniqsa mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi islohotlarni chuqurlashtirish, soddalashtirish va barqaror qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

A'zolikni islohotlarning ajralmas qismi sifatida e'tirof etgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning pozitsiyasi bu jarayonni strategik darajada qo'llab-quvvatlashga asos bo'lmoqda. Biroq JSTga a'zolik natijalarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun davlat tomonidan biznesga texnik yordam, moliyaviy subsidiyalar va malakali maslahat xizmatlarini kengaytirish zarur.

JSTga a'zolikdan so'ng mahalliy tadbirkorlar uchun tavsiyalar

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi nafaqat makroiqtisodiy jarayonlarga, balki mamlakatdagi har bir tadbirkorning kundalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. JSTga a'zolik O'zbekiston bozorini xalqaro raqobatga ochadi, bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning samaradorlik, sifat va texnologik yangilanish bo'yicha salohiyatini oshirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda kichik va o'rta biznes subyektlari ishlab chiqarish jarayonlarida asosan milliy standartlar (O'z DST) va texnik reglamentlarga asoslanadi. Mahsulot sifati, xavfsizligi va ekologik talablar bo'yicha standartlashtirish tizimi hali JST standartlariga to'liq moslashtirilmagan.

JSTning standart va texnik reglamentlarga oid talablari:

JSTning "Texnik to'siqlarni bartaraf etish to'g'risida bitimi" (TBT Agreement) talablariga ko'ra:

Standartlar va texnik reglamentlar xalqaro standartlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Mahsulot sifati, xavfsizligi va iste'molchini himoya qilish bo'yicha shaffof va ilmiy asoslangan yondashuv bo'lishi zarur.

Davlatlar tomonidan o‘rnatilgan talablar savdoga sun‘iy to‘siq yaratmasligi kerak.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi holat:

Standartlashtirish agentligi (O‘zstandart) orqali mahsulotlarga sertifikat beriladi, biroq bu tizim ko‘plab hollarda xalqaro ISO, IEC, Codex Alimentarius va boshqa standartlar bilan to‘liq uyg‘un emas.

Mahalliy tadbirkorlar mahsulot eksportida ko‘p hollarda qo‘shimcha sertifikatlashtirish xarajatlariga duch kelishmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab kichik korxonalar xalqaro texnik talablar haqida yetarli axborotga ega emas.

Mahalliy tadbirkorlar uchun amaliy tavsiyalar

1. Mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish

ISO 9001 (Sifatni boshqarish), ISO 22000 (Oziq-ovqat xavfsizligi), ISO 14001 (Ekologik menejment) kabi xalqaro standartlarni joriy etish.

O‘z mahsulotini eksportga tayyorlash uchun xalqaro laboratoriya va akkreditatsiyalardan foydalanish.

ISO rasmiy sayti:

<https://www.iso.org>

2. Texnik hujjatlar va sertifikatlarni tayyorlash

Mahsulot pasporti, xavfsizlik deklaratsiyasi, tarkib sertifikati, ekologik muvofiqlik hujjatlari JST doirasida muhim hisoblanadi.

Tadbirkorlar uchun “bir darcha” orqali sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish lozim.

3. Ichki bozorda kuchayib borayotgan raqobatga tayyorgarlik

Mahsulot dizayni, qadoqlash, xizmat ko‘rsatish sifati va iste‘molchi bilan aloqa jihatidan zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish.

Xorijiy brendlar bilan raqobatlasha oladigan noyob takliflar ishlab chiqish.

4. Eksportga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish

Eksport bozorlarida talabni o‘rganish, onlayn eksport platformalariga chiqish.

Eksport bo‘yicha logistika, bojxona va marketing ko‘nikmalarini oshirish.

5. Yangi qonunchilik va JST qoidalariga moslashish

Tadbirkorlar JST majburiyatlari bo‘yicha milliy veb-portal yoki elektron hujjat bazasidan xabardor bo‘lishi kerak.

Davlat tomonidan e‘lon qilinadigan qonun loyihalari, reglamentlar bo‘yicha doimiy maslahatlar olish.

JSTning qonunchilik va huquqiy moslik tizimi:

https://www.wto.org/english/tratop_e/region_e/region_e.htm

6. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamdan foydalanish:

Innovatsion rivojlanish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Eksportchilar uyushmasi kabi tuzilmalar orqali trening, grant va maslahat xizmatlaridan foydalanish.

JSTga tayyorgarlik doirasida tadbirkorlar uchun texnik yordam dasturlari yo'lga qo'yilishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar: O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichiga o'tishini bildiradi. Bu jarayon xalqaro savdoga integratsiya, tashqi bozorlar ochiqligi, va ichki iqtisodiy tizimning shaffof va raqobatbardosh bo'lishini taqozo etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, JSTga a'zolik mamlakat YAIMining 5–7 yil ichida 17 foizgacha o'sishiga xizmat qilishi mumkin (World Bank, 2023).

Bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ko'plab kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari milliy standartlarga, mahalliy bozorlarga va davlat buyurtmalariga yo'naltirilgan. Ularning aksariyati xalqaro sifat standartlari, bojxona reglamentlari, eksport hujjatlari va raqobatga tayyorgarlik borasida yetarli bilim va infratuzilmaga ega emas.

JSTga a'zolik aynan mana shu tadbirkorlar uchun katta sinov va imkoniyatdir. Yangi talablar sharoitida faqat zamonaviy, moslashuvchan va xalqaro standartlarga javob bera oladigan korxonalar muvaffaqiyat qozonadi. Shu boisdan quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Mahalliy tadbirkorlar uchun tavsiya va yo'nalishlar

Xalqaro standartlarga o'tish – zarurat, emas, majburiyat

JST talabiga ko'ra, mahsulot va xizmatlar xalqaro texnik reglamentlarga mos bo'lishi kerak (TBT Agreement).

Tadbirkorlar ISO 9001, ISO 22000 belgilari kabi standartlarni o'z faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etishi zarur.

Bu borada "O'zstandart" agentligi tomonidan xalqaro sertifikatlashtirish bo'yicha konsalting xizmatlari kengaytirilishi kerak.

Bozorga kirish va marketing strategiyalarini yangilash

Mahsulotlar dizayni, qadoqlash va brendlash xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi lozim.

Onlayn savdo platformalaridan foydalanish, B2B tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmasi oshirilishi zarur.

Moliyaviy va texnologik tayyorgarlik

Tadbirkorlar o'z ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik jihatdan yangilashga harakat qilishi kerak.

Davlat tomonidan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari orqali ushbu o'zgarishlarni rag'batlantirish mexanizmlari kuchaytirilishi maqsadga muvofiq.

Huquqiy axborotga ega bo'lish va moslashuvchanlik

JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston qonunchiligida muhim o'zgarishlarni talab qiladi. Shu sababli tadbirkorlar:

Soliq kodeksi, bojxona qonunlari, intellektual mulk, iste'molchi huquqlari kabi sohalarda o'z bilimlarini yangilashi kerak.

Shu maqsadda Savdo-sanoat palatasi, JST markazi va hududiy biznes inkubatorlar orqali bepul trening va seminarlar muntazam o'tkazilishi lozim.

Kichik biznes uchun inklyuziv tizim yaratish

JSTga a'zolikdan eng ko'p zarar ko'rishi mumkin bo'lgan kichik ishlab chiqaruvchilar uchun maxsus o'tish davri strategiyasi ishlab chiqilishi zarur.

Masalan, ichki bozorni himoya qilish, muhim strategik sohalarda kvotalar qo'yish yoki vaqtinchalik bojlar joriy etish orqali bu jarayon yumshatilishi mumkin (WTO Safeguards Agreement).

Monitoring va samaradorlik bahosi

JST bilan integratsiya jarayonida har chorakda mahalliy tadbirkorlikning JST talablariga moslashuvi bo'yicha baholash tizimi joriy etilishi lozim.

Ushbu monitoring asosida sohalar kesimida qo'shimcha yordam choralari ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun strategik imkoniyat bo'lsa-da, u bilan birga keladigan majburiyatlar va raqobat talablari har bir tadbirkorning ish faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mahalliy tadbirkorlar o'z bizneslarini:

Xalqaro standartlarga mos,

Huquqiy jihatdan barqaror,

Bozor talablari va raqobatga tayyor,

Texnologik va moliyaviy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan shaklda yuritishlari kerak.

Bu yo'lda davlatning qo'llab-quvvatlashi, axborot va texnik yordam muhim bo'lsa-da, tadbirkorning o'zi faol, bilimli va zamonaviy bo'lishi zarur. Zero, JST a'zoligi bu imkoniyat emas, javobgarlikni ongli qabul qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jahon banki. (2023). O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha prognoz. <https://www.worldbank.org>

2.Spot.uz. (2024). O'zbekiston JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha harakatlar va xalqaro texnik yordam. <https://www.spot.uz>

3,Prezident.uz. (2024). Shavkat Mirziyoyevning JST bo'yicha chiqishi. <https://www.president.uz>

4.JST rasmiy sayti. (2024). O'zbekiston bilan muzokaralar holati. <https://www.wto.org>

5.O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy sayti. (2024). JSTga a'zolik bo'yicha yuridik islohotlar. <https://www.gov.uz>

6.Urunov, A. (2024). JST bo'yicha Prezident maxsus vakilining intervyusi. [Manba: Matbuotdagi chiqishlar].

7.Mirzayev, M. (2024). Soliq qo'mitasi vakilining JSTga oid fikrlari. [Manba: OAV intervyusi].